

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHGA ASOSLANGAN IJTIMOIY TADBIRKORLIKNING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

Narzullayev Elmurod Shuhrat o'g'li¹, Nosir Mahmudov
Mahmudovich²

¹Namangan muhandislik-texnologiya instituti tayanch doktoranti,

²Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

iqtisod fanlari doktori, professor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5543374>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-sentabr 2021

Ma'qullandi: 20-sentabr 2021

Chop etildi: 25-sentabr 2021

KALIT SO'ZLAR

ijtimoiy tadbirkorlik; atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlik; ijtimoiy tadbirkorlik yo'nalishlari;

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ijtimoiy tadbirkorlik sohasining paydo bo'lish tarixi, uning vujudga kelishiga sabab bo'lgan iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik omillar, an'anaviy tadbirkorlik turlaridan farqlari, ijtimoiy tadbirkorlik yo'nalishlari, bu yo'nalishda muvaffaqiyatga erishayotgan korxonalar, atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlikning nima ekanligi, uning tarkibiy tuzilishi, bu sohadagi ijtimoiy tadbirkorlarning turlari haqida so'z yuritiladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va kelajak avlodga xavfsiz yashash muhitini qoldirish bugungi kunning eng dolzarb muammolari biri hisoblanadi. Yer yuzida ekologik vaziyat kundan-kunga global darajada yomonlashib bormoqda. Ushbu muammoni hal qilish uchun turli mamlakatlar turli xil choralarni qo'llab ko'rmoqda. Ular orasida, bugungi kunda eng samarali choralardan biri atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlik kabi faoliyat turi hisoblanadi.

Bu turdagi ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun jamiyatning tabiatga va yashil ishlab chiqarishga bo'lgan nuqtai nazarini o'zgartirish, sohadagi tadbirkorlarni rag'batlantirishi muhim ahamiyatga ega. Buning natijasi o'laroq,

inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sirini kamayishiga, qulay va zaharlardan holi muhitga, qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishni ommalashihiga, yashilni saqlashga, chiqindilarni qayta ishlash mexanizmiga, iqtisodiyotni rivojlanishi kabi hayotiy muhim masalalarning yechimiga erishish mumkin.

Tadbirkorlik doimiy ravishda o'sib borayotgan faoliyat turidir. Aynan, mavjud ekologik muammolar tadbirkorlik faoliyatiga ekologik tarafdin yondashuvlarni rivojlanishiga olib keldi. Aholining ekologik bilimlarini oshib borishi jamiyatlarning ekologik toza tadbirkorlarga bo'lgan ehtiyojini ham oshiradi. Tabiat resurslarining cheklanganligi, dunyo aholisining tinimsiz ko'payishi va biologik



xilma-xillikning kamayishi ekologiya haqida xavotirlar paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlarni an'anaviy tadbirkorlardan ajratib turadigan asosiy farqi bosh maqsad ko'proq foyda olish bo'lishidan tashqari, bu turdagi tadbirkorlar ekologik jihatdan ongli, iqtisodiy rentabelli va ijtimoiy qiymat yaratadigan biznes modelini yaratishga intiladi. Umuman olganda, ijtimoiy tadbirkorlik nima ekanligi haqida tushuncha berib o'tsak.

Ijtimoiy tadbirkorlik - bu nisbatan yangi atama hisoblansada, uning vujudga kelishida asos bo'lgan tushunchalarni ancha uzoqdan izlash mumkin. Ijtimoiy tadbirkorlik atamasi fanda paydo bo'lishidan oldin ham bolalar huquqlari, xotin-qizlar huquqlarini himoyala qilish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, atrof-muhit muammolari va boshqa ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun ishlagan ko'plab tadbirkorlar mavjud bo'lgan. XIX asrning boshidayoq ijtimoiy korxonalarini tashkil etgan ikkita diqqatga sazovor tadbirkorlar kooperativ harakat asoschisi Robert Ouen (1771-1858) va birinchi hamshiralik maktabiga asos solgan va turli xil zamonaviy hamshiralik amaliyotlarini rivojlantirgan Florens Naytingeyl (1820-1910) hisoblanadi¹. "Ijtimoiy tadbirkorlik" atamasi 1960-yillardan vujudga kelishni boshlagan bo'lsada, 2006-yilda Nobel mukofoti sovrindori Muhammad Yunus

tufayli iqtisodiyot va tadbirkorlikda o'z o'rnini egalladi².

Ijtimoiy tadbirkorlik kontseptsiyasi 1980-yillarda paydo bo'lgan va o'sha paytdan boshlab yanada rivojlanib keloqda. Shunga qaramay, o'nlab yillar davomida kontseptsiyani aniqlash va umumiy ta'rifni topish uchun qilingan sa'y-harakatlardan so'ng ham hamon aniq bir kelishuvga erishilmagan³. Jamiyatni rivojlantirish va yuqori ijtimoiy maqsadlar bilan bog'liq ko'plab tadbirlar zamonaviy ijtimoiy tadbirkorlikning ta'rifiga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda mavjud ko'plab ta'riflarga qaramay, ijtimoiy tadbirkorlikni bir necha shakllarda namoyon bo'lishi mumkinligi tufayli uni to'lig'icha tasnif eta oladigan yaxlid ta'rifni aniqlash qiyin masaladir. Ijtimoiy tadbirkorlikka berilgan umumiy ta'riflardan biri:

Ijtimoiy tadbirkorlik - bu jamiyatning sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, ta'lim, atrof-muhit va inson huquqlari kabi ijtimoiy sohalarda zamonaviy innovatsiyalarni qo'llash va rivojlantirishga urinayotgan, yangicha yondashuvlar va mahsulotlar hamda ma'lum texnologiyalar yoki strategiyalarning yanada qat'iy qo'llanilishidan foydalangan holda ijtimoiy sohalardagi eng dolzarb muammolarini hal qilishga urinayotgan yangicha tadbirkorlik faoliyatidir⁴. Ijtimoiy korxonalar an'anaviy daromad keltiradigan biznes turlari bilan ko'plab o'xshashliklarga ega bo'lishiga

¹ D. Bornstein. How to Change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas – 2005. – B. 88-89

² Christian Seelos, Johanna Mair. Social entrepreneurship: Creating new business models to serve the poor // Business Horizons. —2005. — № 3. — B. 241—246.

³ Banerjee S., Shabam A. "Reimagining Social Enterprise through grassroots social innovations in India" –2019


⁴ Enterprising Ideas. What is a Social Entrepreneur? PBS Foundation –2018.



qaramay, ularda moliyaviy daromadlarni ko'paytirish asosiy maqsad etib belgilanmaydi. Bu turdagi korxonalarining maqsadi turli xil ijtimoiy muommolarni hal etish va atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishdan iborat.

Ijtimoiy korxonalar butun dunyoga keng tarqalgan va jamiyat hayoti uchun birlamchi ehtiyojlar sanalgan sog'liqni saqlash, ta'lim, inson huquqlari, madaniyat va sport, atrof-muhit kabi sohalarda o'z faoliyatini olib boradilar.

Ijtimoiy tadbirkorlik faoliyati olib boriladigan yo'nalishlar (1-rasm):⁵



Sog'liqni saqlash. Ijtimoiy tadbirkorlik muhim rol o'ynaydigan asosiy yo'nalishlardan biri bu odamlarning tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini ta'minlashdir. Buni yangi shifoxonalar va arzon tibbiy poliklinikalar tashkil etish, dori-darmon bilan ta'minlash, shuningdek, bemorlarni o'qitish va o'z navbatida, xodimlar soni kam bo'lgan klinikalarda yordam berish orqali amalga oshirish mumkin. Masalan, "Onalar-onalarga" (Mothers2mothers) ijtimoiy korxonasi (m2m) OIV (Orttirilgan Immunitet Virus) bilan kasallangan onalarni aniqlaydi va ularni tubdan ishlab chiqilgan o'quv dasturlariga jalb qiladi. Bu dastur orqali bemorlar o'zlariga qanday g'amxo'rlik

qilishni hamda shifokorlar va hamshiralar bilan bir qatorda pullik murabbiy onalar sifatida ishlashni ham o'rganadilar. Maslahatchi sifatida ular o'zlari kabi bemorlarni qo'llab-quvvatlaydilar va o'qitadilar. Yangi bemor onalarga o'zlari va farzandlarining hayotlarini saqlab qolish muolajalarini o'rganishda ko'mak beradilar.

OIV (Orttirilgan Immunitet Virus), OITS (Orttirilgan Immunitet Tanqisligi Sindromi) yoki boshqa kasalliklarga chalingan ko'plab odamlar mablag' yetishmasligi yoki ijtimoiy cheklovlar tufayli to'g'ri davolanishga qodir emaslar. Keniya, Lesoto, Malavi, Janubiy Afrika, Svazilend va Uganda va boshqa

⁵ Muallif tomonidan yaratilgan



mamlakatlarda faoliyat yuritadigan m2m-ning “Murabbiy Ona” modeli taxminan 106,700 OIV infeksiyasiga chalingan chaqaloqlarga foyda keltirdi va 1200 dan ortiq OIV-musbat ayollarni ish bilan ta'minladi. Bundan tashqari, 2014-yilda m2m mijozlari orasida OIV infeksiyasining onadan bolaga yuqishini yo'q qilishga erishildi⁶.

Ta'lim. Ijtimoiy tadbirkorlar e'tiboriga tushgan va yuqori saviyada ish olib boriladigan yana bir sohasi - bu ta'limdir. Bu sohada asosiy e'tibor daromad olishga qaratilmaganligi tufayli sohadagi ko'plab tashkilotlar daromad olmaydigan ijtimoiy tadbirkor sifatida faoliyat yuritadilar. Ta'lim olish hamon global muammo bo'lib qolayotganligi sababli, ko'plab ijtimoiy tadbirkorlar sohadagi kamchiliklarni hal qilishga kirishdilar. O'quvchilar orasida maktabni erta tashlab ketish darajalarini pasaytirish, ularga ta'lim olish yo'lida yordam berish, darslarda qatnashchilar davomatini kuchaytirish, o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'quv materiallari va infratuzilma bilan ta'minlash va boshqalar ijtimoiy tadbirkorlar oldidagi asosiy muammolar bo'lib turibdi. Butun dunyo bo'ylab ta'limni rivojlantirish uchun ijtimoiy tashabbuskorlar tomonidan ko'plab samarali islohotlar amalga oshirilishi mumkin. Masalan, Marokashda joylashgan Al-Jisr ijtimoiy tashkiloti Marokash jamiyatining barcha tarmoqlari bilan hamkorlik qilish orqali ta'limdagi kamchiliklarni hal qiladi. Aniqroq qilib aytganda, tashkilot maktabning qabul qilish dasturini ishlab chiqish, kompaniya rahbarlarini ota-onalar, o'quvchilar va

o'qituvchilar bilan o'zaro aloqasini ta'minlash, maktabning zaif tomonlarini o'rganib chiqish, ish samaradorligini oshirish bo'yicha harakatlar strategiyasini ishlab chiqish uchun maktab boshqaruvini qo'llab-quvvatlash kengashiga qo'shilish va rivojlanishni monitoring qilish kabi faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Maktabni qabul qilayotganda kompaniya har yili davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladigan byudjetni o'rganib chiqadi va maktab ehtiyojlarini imkon qadar tezroq ijobiy yaxshilash uchun o'zining yillik rejasini taqdim etadi. Shu tarzda faoliyat yuritib, Al Jisr 400 dan ortiq maktablarda ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi⁷.

Inson huquqlari to'g'risida gap ketganda, ijtimoiy tashkilotlar erkinlik, baxtga intilish, kamsitishlardan xoli yashash, dindan erkin foydalanish, so'z erkinligi, adolatli sud va boshqa ijtimoiy-huquqiy masalalarni himoya qilishga intiladi. Odamlarni o'qitish, hukumatlar bilan muzokaralar olib borish, xavfsiz muhitni ta'minlash, jamoatchilik xabardorligini oshirish, bularning barchasi ijtimoiy korxonalar tomonidan qo'llaniladigan strategiyalar bo'lib, ular ko'pincha eng xavfli va kam ta'minlangan sharoitlarda yashovchilarga yordam berishadi. Bunga Meksikaning Reinserta Un Mexicano korxonasi misol bo'la oladi. Reinserta, jinoiy tarixga ega bo'lgan oiladan kelib chiqqan yoki qamoqxonada tug'ilib o'sgan bolalar degani, ularning o'zi ham bir umr jinoyatchi bo'lishini anglatmaydi degan shior bilan ish yuritadi. Birgina Mexiko shahrida har yili qamoqxonalarda 130 ta

⁶ <http://www.m2m.org>

⁷ <http://www.linkedin.com>



bola tug'iladi⁸. Reinserta Meksika hukumati bilan reabilitatsiya foydasiga qonunchilik bazasini o'zgartirish bo'yicha ish olib boradi va go'daklarning qamoqda qolishi mumkin bo'lgan maksimal yoshni 6 yosh dan 3 yoshgacha tushirishga katta rol o'ynagan. Shuningdek Reinserta tashkiloti, og'ir jinoyatchilikka aloqasi bo'lgan o'spirinlar o'qishni davom ettirishlari uchun "yarim yo'l" nomli dasturni ham boshqaradi⁹.

Madaniyat. Korxonalar madaniyatdan ijtimoiy o'zgarishlarni va jamoatchilik integratsiyasini rivojlantirish vositasi sifatida o'z manfaatlari uchun foydalanishi ham madaniyatning rivojiga hissa qo'shadi. Paragvayning Sonidos de la Tierra korxonasi qashshoqlikni kamaytirish, ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratish va fuqarolik ishtirokini rag'batlantirish uchun musiqadan foydalanadi. "Kunduzi Motsartni chalgan bola tunda do'kon oynalarini sindirmaydi" shiori ostida ushbu ijtimoiy korxonalar Paragvay bo'ylab musiqa muassasalarini tashkil etdi¹⁰. Tashkilot tomonidan yollangan musiqa professorlarining o'quvchilarining yarmidan ko'pi korxonalar musiqa dasturi doirasida o'zlarining cholg'ularida o'ynashni o'rgandilar. Tashkilot shuningdek, o'zlarining jamoalarida musiqa asboblari ta'mirlaydigan, ularga xizmat ko'rsatadigan va ushbu ko'nikmalar bilan hayot kechirishga qodir bo'lgan mustaqil mikro-tadbirkorlarni o'qitdi. Paragvay professional orkestrlari a'zolarining 30 foizi Sonidosning sobiq talabalari¹¹.

Atrof-muhit. Ijtimoiy tadbirkorlarning e'tiborini atrof-muhitga

qaratish uchun juda ko'p imkoniyatlari mavjud: barqaror mahsulot yoki xizmatlarni yetkazib beradigan korxonalarini rivojlantirish, tabiiy resurslarni mas'uliyat bilan taqsimlash, chiqindilarni yo'q qilish va kamaytirish, ularni arzon hom-ashyo sifatida qayta ishlash, yerdagi yovvoyi hayot va hayvonot olamini saqlab qolish yoki shaharchalar, kompaniyalar va hukumatlarning atrof-muhitga zararini kamaytirishga qarshi kurashish va boshqa shu kabi masalalardir.

Ushbu sohada tashkil etilgan ijtimoiy korxonalaridan biri "BioRegional" hisoblanadi. Ushbu korxonalar xilma-xil ijtimoiy faoliyat turlari bilan shug'ullanadi, lekin Londonda tashkil etilgan BedZED ekokishlog'i loyihasi tufayli shuhrat qozongan. Ushbu keng ko'lamlil barqaror jamiyat o'z ichiga 220 kishiga moslashgan 100 ta uy, kollej, ofislar va turli jamoat ob'ektlarini oladi. Ushbu kichik jamiyat o'z ehtiyojlarini qondirish uchun mahalliy, tabiiy va faqat qayta ishlangan resurslardan foydalanadi¹². Chiqindilarni qayta ishlash haqida gap ketganda, Kanadada joylashgan "O'zgarishlar uchun plastik" ijtimoiy tadbirkorlik korxonasi yaqqol misol bo'la oladi. Tashkilot rivojlanayotgan mamlakatlarda chiqindilar orasidan qayta ishlashga yaroqli plastmassalarni ajratib olib, ularni o'rtakashlarga ya'ni, keyinchalik chiqindini qayta ishlashkorxonalariga yetkazib berish bilan shug'ullanadigan odamlarga sotadigan chiqindi ajratuvchilarni nishonga oladi. Plastics for Change mobil qurilmalar orqali kuzatish mumkin bo'lgan virtual bozorni tashkil etdi, bu esa chiqindi yig'uvchilarga plastiklarning

⁸ <https://www.ashoka.org/>

⁹ Nils De Malsche – RESET.org– 2016 y.

¹⁰ <http://schwabfound.org> – world economic forum

¹¹ <http://schwabfound.org> – world economic forum

¹² <http://bioregional.com>



bozor narxini tekshirishga va bu orqali o'rtakashlar bilan savdo narxlarini muhokama qilishda ularning savdolashuv kuchini oshirishga imkon berdi¹³. Bu g'oya plastik chiqindilarni yo'q qilish bilan bog'liq muammolarni hal qilish bilan birga chiqindi yig'uvchilarni daromad manbai bilan ta'minlashga yordam berdi. Ularga hayotning muqobil usullarini va muqobil

iqtisodiyotni namoyish etib, odamlarga fundamental va keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish mumkinligini namoyish etishdi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlik tarkibiy tuzilishi quyidagi guruhlarga bo'linadi (2-rasm):¹⁴

Atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlik

Atrof-muhit ifloslanishini boshqarish guruhi	Tozalovchi texnologiyalar va mahsulotlar	Tabiiy resurslarni boshqarish guruhi
<ol style="list-style-type: none">1. Havoning ifloslanishini boshqarish2. Chiqindi suvlarni boshqarish3. Qattiq chiqindilarni boshqarish4. Tuproq va suvni tozalash va filtrlash5. Shovqin va tebranishning pasayishi6. Atrof-muhit monitoringi, tahlil va baholash7. Ekologik ta'lim va o'qitish8. Havoning ifloslanishini boshqarish9. Suvning ifloslanishini va ortiqcha sarfini boshqarish10. Chiqindilarni qayta ishlashni boshqarish11. Tuproq va suvni tozalash12. Havoning ifloslanishini boshqarish13. Atrof-muhitni tadqiq qilish va rivojlantirish14. Atrof-muhit bo'yicha pudrat va muhandislik xizmatlari15. Tahliliy xizmatlar, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va baholash	<ol style="list-style-type: none">1. Tozalovchi / resurslarni tejaydigan texnologiyalar va jarayonlar<ol style="list-style-type: none">1.1. Tozalovchi / resurslarni tejaydigan texnologiyalarning tarkibiy qismlari1.2. Biotexnologiya2. Tozalovchi / resurslarni tejaydigan mahsulotlar<ol style="list-style-type: none">2.1. Tozalovchi / resurslarni tejaydigan mahsulotlar tarkibiy qismlari	<ol style="list-style-type: none">1. Ichki havo ifloslanishini boshqarish2. Suv ta'minoti<ol style="list-style-type: none">2.1. Ichimlik suvini tozalash2.2. Suvni tozalash tizimlari2.3. Ichimlik suvi ta'minoti va tarqalishi3. Qayta ishlangan materiallar<ol style="list-style-type: none">3.1. Qayta ishlangan qog'oz3.2. Boshqa qayta ishlangan mahsulotlar4. Qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish<ol style="list-style-type: none">4.1. Quyosh4.2. Shamol4.3. Tidal4.4. Geotermal4.5. Boshqalar5. Issiqlik / energiya tejash va boshqarish6. Ekoturizm7. Barqaror o'rmon xo'jaligi<ol style="list-style-type: none">7.1. O'rmonlarni tiklash va o'rmon xo'jaligini boshqarish8. Tabiatni saqlash va resurslarni boshqarish

¹³ <http://plasticsforchange.org>

¹⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



Atrof-muhitni muhofaza qilishga asoslangan ijtimoiy tadbirkorlikning tarkibiy tuzilishi uchta katta guruhlar, guruhlar bo'limlarga, bo'limlar o'zi ham alohida bo'linmalarga ajraladi. Masalan, chiqindilarni qayta ishlashni bo'limi o'z ichiga chiqindilarni qayta ishlash, yig'ish, tashish, ularni yo'q qilish, qayta ishlash, saralash, tozalash, qayta ishlash zavodlarini tashkil etish, zararli chiqindilarni boshqarish, tibbiy chiqindilarni boshqarish, sanoat chiqindilari bilan amaliyotlar olib borish kabi ko'plab bo'linmalarga ajratiladi¹⁵.

Bundan tashqari, atrof-muhitni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy tadbirkorlar tipologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga to'rtta turga ajratib ko'rsatiladi. Ularning har biri har xil darajada moliyaviy foyda yoki ekologik himoyani bosh maqsad qilib belgilagan. Bular¹⁶:

- vaqtincha (yoki tasodifiy) ijtimoiy tadbirkorlar – ular faqat moliyaviy manfaatlarga erishish uchun faoliyat olib borishadi, atrof-muhit himoyasiga qo'shgan hissasi deyarli sezilmaydi;

- moliyaviy yo'nalishga ega bo'lgan innovatsion imkoniyat izlovchilar – bu tadbirkorlar qulay sharoitga ega bozorlarga joylashib aniq belgilangan tartib asosida faoliyat olib boradilar;

- axloqiy maveriklar – ularning barqarorlik yo'nalishi qadriyatlariga, do'stlar, tarmoqlar va o'z tajribalariga bog'liq bo'ladi, moliyaviy qiziqishi yo'qligi sababli odatda kichik miqyosda faoliyat olib borishadi;

- o'zgaruvchan, barqarorlik yo'nalishini qabul qiladigan va bo'lishga moyil chempionlar – ular dunyoni o'zgartirishga intilayotgan va faoliyati atrof-muhit muhofazasi asosida tashkil etilgan ijtimoiy tadbirkorlar;

Umuman olganda, jamiyatning atrof-muhit himoyasiga e'tiboring oshishi, tadbirkorlarning ijtimoiy muammoni hal qilish orqali daromadga erishishi mamlakatdagi mavjud ekologik va ijtimoiy muammolarning yechimini topishda hamda davlat budjetidan bu sohalarga sarfning kamayishiga olib keladi. Shuning uchun ham turli mamlakatlarda ijtimoiy tadbirkorlik sohasi keng targ'ib qilinmoqda.

References:

1. Enterprising Ideas. What is a Social Entrepreneur? PBS Foundation. –2018.
2. J. Gregory Dees. The Meaning of Social Entrepreneurship. – 2016.
3. Martin, R. L., & Osberg, S. Social entrepreneurship: The case for definition. Stanford social innovation Review. – 2007.
4. J. Elkington and P. Xartigan The Power of Unreasonable People: How Social Entrepreneurs Create Markets That Change the World. – 2008.
5. D. Bornstein. How to Change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas – 2005. – B. 88-89
6. OECD Entrepreneurship at a Glance –2011
7. Company Overview of Omidyar Network. Bloomberg. – 26-iyun 2017y.
8. Ashoka: Innovators for the Public (yillik hisobot)– 21-aprel 2015y.

¹⁵ OECD Entrepreneurship at a Glance –2011

¹⁶ OECD Entrepreneurship at a Glance –2011



9. Company Overview of Omidyar Network. Bloomberg. – 26-iyun 2017y.
10. Christian Seelos, Johanna Mair. Social entrepreneurship: Creating new business models to serve the poor // Business Horizons. —2005. — № 3. — B. 241—246.
11. Banerjee S., Shabam A. "Reimagining Social Enterprise through grassroots social innovations in India" -2019